

XX ASRNING 60-80-YILLARIDA O'ZBEKISTONDAGI IQTISODIY HAYOT

Aslonov Jurabek Mansurovich

Navoiy davlat pedagogika insituti 2-kurs magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonning 1960-1980-yillardagi iqtisodiy hayoti, paxta yakkahokimligining o'rnatilishi, bo'sh yerlarning o'zlashtirilishi, yirik sanoat korxonalarining ishga tushirilishi, yengil sanoatga qaratilgan e'tibor, ushbu yillarda yo'lga qo'yilgan iqtisod sohasidagi xatolar iqtisodiy jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: qishloq xo'jaligi, paxta yakkahokimligi, besh yillik reja, paxta xomashyosi, og'ir sanoat, yengil sanoat, kimyoviy o'g'itlar, mineral boyliklar, "Barqaror rivojlanish davri".

ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ЖИЗНЬ УЗБЕКИСТАНА В 60-80-Е ГОДЫ 20-ГО ВЕКА.

Аслонов Журабек Мансурович

Магистрант 2-го курса Навоийского педагогического института

Аннотация. В данной статье рассмотрена экономическая жизнь Узбекистана в 1960-1980-е годы, установление хлопковой монополии, освоение пустующих земель, запуск крупных промышленных предприятий, обращение внимания на легкую промышленность, развитие экономики в эти годы, были экономически проанализированы ошибки, сделанные в этой области.

Ключевые слова: сельское хозяйство, хлопковая монополия, пятилетний план, тяжёлая промышленность, лёгкая промышленность, химические удобрения, минимальные ресурсы, «Период устойчивого развития».

ECONOMOMIC LIFE OF UZBEKISTAN IN THE 60s and 80s OF XX CENTURY

Aslonov Jurabek Mansurovich

2nd year graduate student of Navoi State Pedagogical Institute

Abstract. This state describes the economic life of Uzbekistan in the 1960s and 1980s, the establishment of a peasant monopoly, the development of waste land, the establishment of large industrial enterprises, the development of light industry, the economic development of the country, and the economic analysis of the industrialized regions.

Key words: agriculture, cotton monopoly, five-year plan, heavy industry, light industry, chemical fertilizers, minimum resources, «Period of Sustainable Development».

Ayrim yoshi ulug' insonlar bilan suhbat qurish jarayonida bizni ikkilanishlarga undaydigan bir qancha jumalarni eshitamiz. "SSSR davrida yashash ancha yaxshi edi". "U davrlarda hamma narsa to'kin sochin edi". "Oldimizda doim "plan" bo'lardi. Hammamiz shu planni bajarish uchun harakat qilardik".

Xo'sh, aslida-chi? Haqiqatan ham Sobiq Ittifoq davrida xalqimiz har tomonlama yaxshi yashadimi? Kommunizm qurilishi davri rostdan to'kin-sochinlik davri bo'ldimi? Davlat tomonidan qo'yilgan besh yillik rejalar vatandoshlarimiz tomonidan ijobiy qabul qilindimi? Yuqoridagi savollarga yurtimizning 1960-1980-yillardagi iqtisodiy hayotini o'rganish orqali javob topishimiz mumkin.

Barchamizga ma'lumki, Sobiq Ittifoq tashkil topgach, undagi barcha respublikalar ma'lum bir mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashdi. Dehqonchilik qilish uchun iqlimi mo'tadil, yerlari unumdor bo'lgan O'zbekiston (O'zbekiston SSR) ning chekiga, asosan, paxta yetishtirish tushdi. Shuning uchun, bu davrdagi ko'pgina statistik ma'lumotlarda paxta xomashyosi birinchilardan bo'lib tilga olinadi. Garchi bir nechta sanoat korxonalari, to'qimachilik fabrika va zavodlari, elektrostansiyalar qurilib, bir qancha sanoat sohalari rivojlangan bo'lsa ham, ularning deyarli barchasi, avvalo, paxtachilik bilan bog'liq edi.

SSSR tashkil topgan ilk kunlardanoq O'zbekistonda paxta yetishtiriladigan hududlarni kengaytirish, hosilni ko'paytirishga alohida e'tibor qaratildi. Jumladan, 1928-yilda O'zbekistondagi butun ekin maydonlari 1748000 gektarni tashkil etib, shulardan 1353000 gektari sug'oriladigan, 395000 gektari esa lalmikor yerlar edi. Sug'oriladigan yerlardan 530000 gektari yoki 39,2 foizi g'o'za bian band etilgan bo'sa, qolgan 612000 gektari g'alla, 221000 gektari poliz ekinlariga ajratilgan edi. SSSR tomonidan amalga oshirilgan besh yillik rejalarda ushbu raqamlar doimiy ravishda o'zgarib borgan. G'alla va poliz ekinlari uchun ajratilgan yerlarning ko'pgina qismi paxta maydonlariga aylanib bordi. Masalan, g'alla turlarining ekin maydoni 1940-yilda 1479900 gektarni, go'za ekin maydoni esa 923500 gektarni tashkil

etgan bo'lsa, 1960-yilga kelib g'alla ekin maydonlari 894800 gektargacha kamaytirilgan, paxta ekiladigan maydon hisobi esa 1386600 gektarga yetkazilgan. Ushbu raqamlar yildan yilga o'sib boraverdi va 1985-yilga kelib, 2 million gektarni tashkil etdi.

O'z-o'zidan savol tug'iladi. Paxta yetishtirish uchun yildan yilga ko'payib borgan maydonlar qanday qilib shakllantirildi? Ushbu savolga quyidagicha javob berish mumkin: birinchidan, xalq hayoti uchun muhim bo'lgan boshqa ekinlarni kamaytirish hamda bo'sh yotgan yerlarni o'zlashtirish. Yuqorida g'alla va poliz ekinlari uchun ajratilgan yerlarning kamayganligiga guvoh bo'ldik. Bo'sh yotgan yerlarni o'zlashtirishda Markaz rahbariyati Mirzacho'lga o'z e'tiborini qaratdi. 1956-yil 6-avgustda KPSS MK va SSSR Ministrlar Soveti tomonidan "Paxta yetishtirishni ko'paytirish uchun O'zbekiston SSR va Qozog'iston SSR dagi Mirzacho'lning bo'z yerlarini sug'orish va o'zlashtirish to'g'risida" Qaror qabul qilindi. Ushbu qaror asosida 1964-yildan boshlab har yili kamida 320-340 ming tonna paxta xomashyosini yetishtirish mo'ljallangan edi. 1956-1959-yillarda bu yerda 35,5 ming gektar yer sug'orilib, 460 km.li sug'orish tarmoqlari, 630 km.li ochiq kollektorlar yotqizildi.

O'z o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, Mirzacho'lni o'zlashtirish davomida "sifat emas, balki songa" ahamiyat berildi. Hududlarning tuproq unumdorligi, hosildorligi, qilinayotgan ishlarning sifat darajasiga e'tibor qilinmadi. Natijada ushbu hududlardan kutilgan darajada hosil olinmadi, paxta xomashyosining hosildorligi keskin kamaydi. Xususan, "Glavsredazsovxozstroy" tomonidan 1986-yilgacha o'zlashtirilgan 880 ming gektar yerning 595 000 gektari yaroqsiz holga keldi. 1971-1985-yillarda yo'l qo'yilgan xatolar oqibatida 2,3 mln. gektar yerning meliorativ holati yomonlashib, 670 ming gektar yerdagi zovurlar qayta ta'mirlandi.

Mirzacho'lni o'zlashtirishda hududimizdan oqib o'tuvchi ikkita eng yirik daryolar Amudaryo va Sirdaryoning suvidan keng foydalanildi. Buning natijasida ushbu daryolarning Orol dengiziga quyiladigan suv miqdori keskin kamaydi. Bu esa o'z navbatida bugungi kunda hududimizdagi eng ulkan bo'lgan Orol ekologik muammosiga zamin yaratdi. Amudaryoning quyi oqimida baliqchilik, mo'ynachilik, ovchilik xo'jaliklari yo'q bo'lib ketdi. Paxtachilik va chorvachilik 1980 – 1985-yillarda har yili 30 mln rubldan ortiqroq zarar ko'rdi.

Bundan tashqari, paxta hosildorligini oshirishda qishloq xo'jaligida kimyoviy mahsulotlardan keng foydalanish joriy qilindi. Yil sayin qishloq xo'jaligini kimyolashtirish kuchaytirildi. Agarda 1965-yilda O'zbekistonga mineral o'g'itlar yetkazib berish 2 550 000 tonnani tashkil etgan bo'lsa, 1970-yilda u 3 496 000 tonnaga ko'paydi. O'z o'rnida shuni alohida ta'kidlash lozimki, ekin maydonlariga kimyoviy o'g'itlar bilan ishlov berish jarayonida aholining manfaatlari inobatga olinmadi, ularning inson salomatligiga zarar yetkazishiga e'tibor qaratilmadi. Buning natijasida esa, xalqimiz orasida turli kasalliklarning ommaviy tarqalishi kuchaydi. Ayniqsa, paxtaga ishlov berishda ishlatiladigan DTT o'ta xavfli kimyoviy moddalardan biri hisoblanardi. Ko'pgina G'arb davlatlarida 70-yillardayoq undan foydalanish ta'qiqlangan bo'lishiga qaramasdan, Sovet davlati undan keng ko'lamda foydalanishda davom etdi. 1970-yilgacha boshqa ko'pgina davlatlarda uni aholi jon boshiga tahminan 300 grammdan qo'llashgan bo'lsa, O'zbekistonda bu miqdor 7-8 kg dan to'g'ri kelardi. Bundan tashqari aynan ushbu modda nafaqat traktorlar bilan balki qishloq xo'jaligi aviatsiyasi yordami bilan ham dalalarga sepilar edi. Bunday zaharli moddalarni aviatsiya orqali sepilganda ular suv yuzasida, qishloqlardagi binolarning tom qismida hamda havoda to'planib qolardi va keyinchalik ham inson salomatligiga zarar yetkazishda davom etardi.

O'zbekistonning 1960-1980-yillardagi iqtisodiy o'zgarishlariga, rivojlanish tendensiyasiga e'tibor beradigan bo'lsak, unda bir qancha jihatlar e'tiborimizni tortadi. 1961-1965-yillarda respublika yalpi iqtisodiy mahsulotining o'sishi avvalgi besh yillik (1956-1960-yillar)ka nisbatan qariyb 7,1 foizga, sanoatning rivojlanishi 8,4 foizga, qishloq xo'jaligining yalpi mahsuloti 4,0 foizga o'sishi ta'minlangan bo'lsa, maishiy xizmat ko'rsatish sohasi esa 16,8 foizga o'sgan. Biroq 1966-1970-yillarda yurtimizda yalpi ijtimoiy mahsulot ishlab chiqarish 6,7 foizga o'sgan bo'lsa, 1981-1985-yillarda bu ko'rsatkich 3,6 foizni tashkil etgan. Shu davr ichida ishlab chiqarilgan milliy foyda 6,8 foizdan 3,3 foizga tushib ketgan, aholining real daromadi esa 6,6 foizdan 1,3 foizga kamaygan.

Yuqoridagi stastistik ma'lumotlar o'z-o'zidan bir qancha savollarni keltirib chiqaradi. Nega 1961-1965-yillarda o'sish sur'atlari yuqori bo'lgan hudud keyingi o'n yilliklarda "orqaga qarab ketdi"? Qanday omillar yurtimizda rivojlanishning sekinlashuviga, iqtisodiy ko'rsatkichlarning pasayishiga olib keldi?

Bunga Sovet rahbariyati tomonidan amalga oshirilgan bir qancha islohotlarni sabab qilib keltirishimiz mumkin. Avvalo, Ikkinchi Jahon urushi tugaganidan so'ng, Markaz rahbariyati O'zbekiston qishloq xo'jaligi sohasida paxta yetishtirishni to'la monopoliya sifatida o'rnatishni maqsad qilib qo'ygan edi. Bu sohada urush yakunlanishi bilan deyarli 15 yil davomida paxta xomashyosini yetishtirish uchun zarur moddiy-texnik baza shakllantirildi. Sovet rahbariyati esa ushbu jarayonlarni sinfiy talqin qilib, "1961-yilda kommunizmning moddiy-texnik bazasi yaratilishi natijasida O'zbekiston yangi tarixiy

bosqichga qadam qo'ydi" deya talqin qildi.

SSSRning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi ayrim ijobiy siljishlarga qaramay, umumna olgan XX asrning 60-yillari o'rtalarida iqtisod sovet ma'muriy-buyruqbozlik boshqaruvi mdelining salbiy ta'siri ostida edi. Bu jihat quyidagi faktlarda namoyon bo'ldi, ya'ni sovet siyosiy rahbariyati iqtisodda mavjud bo'lgan quyidagi salbiy holatlarni tan olishga majbur bo'ldi:

□ boshqaruvni tashkil etishning mavjud shakli, rejalashtirish va sanoatni iqtisodiy rag'batlantirish uslublari va ishlab chiqaruvchi kuchlar rivoji zamonaviy talablar darajasiga javob bermasdi;

□ qat'iy reglamentatsiya qilinishi oqibatida korxonalaridagi jamoalarning tashabbuskorligi cheklab qo'yilgan, ishlab chiqarishni tashkillashtirishni yaxshilash uchun esa xo'jalik rahbarlarining mas'uliyati pasayib ketgan edi;

□ korxonalar huquqining yetarli emasligi hamda rejaviy va xo'jalik rahbar organlarning ular ustidan nazoratni kuchaytirishi natijasida ishlab chiqarishda yuqri ko'rsatkichga erishish va mahsulot sifatini yaxshilash uchun ancha samarali bo'lgan xo'jalik hisobi uslubidan nihoyatda kam foydalanilgan;

□ sanoat korxonalaridagi xodimlarning moddiy rag'batiga yetarli e'tibor berilmaganligi oqibatida iqtisodiy ko'rsatkichlar, mahsulot sifatini yaxshilash, korxonalar ishining umumiy natijalari qiziqqirmay qo'ydi.

Sanoatning qator sohalarida unumdorlik va rentabellik (foйда ko'rish), mehnat samaradorligi tushib ketib, mahsulot sifati past bo'lib qolaverdi. "Ilmiy-texnik taraqqiyot tadbirlari" deb atalmish choralar faqat qog'ozda bo'lib, ular ministrlar va mahkamalar tomonidan muntazam ravishda bajarilmay keldi, chunki uni sovet buyruqbozlik iqtisodiy tizimi sharoitlarida amalga oshirish deyarli mumkin emas edi.

Bu davrda sanoatning asosiy sohalarida, masalan, mineral o'g'itlar, sement, qo'rg'oshin va po'lat ishlab chiqarishda ishlab chiqarish quvvatlaridan samarasiz va noo'rin foydalanildi. Mashinasozlikda uskunalarning smeni koeffitsiyenti (uskunalardan foydalanish koeffitsiyenti) 1,35 foizdan oshmadi.

Ma'lumki, yurtimiz mineral xomashyo turlariga nihoyatda boy hudud hisoblanadi. Hududimizda ko'pgina foydali qazilmalar mavjud. Oltin, uran, mis, volfram, tabiiy gaz, qo'rg'oshin kabi mineral konlari topilib, aynan biz o'rganayotgan davrda ishga tushirildi. Biroq ushbu hodisalar ham, mamlakat iqtisodiyotiga hech qanday ijobiy ta'sir ko'rsatgani yo'q. Buning asosiy sababi esa, oltin, uran va tabiiy gaz kabi qazilma boyliklar to'laligicha Markaz ixtiyoriga o'tkazildi. Yuqoridagi tabiiy resurslardan olingan foydaning atigi 1 foizi mahalliy byudjetga qaytarildi, xolos. Ushbu talonchilik yurtimiz iqtisodiyoti uchun juda katta zarar keltirar edi. Markaz rahbariyati esa, nodir metallar, gaz va strategik muhim xomashyo tovarlarini favqulodda maxfiylik (совершенно секретно) niqobi ostida yurtimizdan deyarli tekinga tashib ketishar edi.

1956-yili Buxoro viloyatida dunyoda eng yirik va ulkan Gazli neft-gaz konining topilishi O'zbekistonda tabiiy gaz qazib chiqarishning tez sur'atlarda rivojlanishiga asos bo'ldi. Jahondagi eng yirik gaz konlaridan biri hisoblangan bu konning umumiy zaxirasi 500 mlrd m³ gaz bo'lgan. Bu yerda "zangori olov" bunyodkorlari – gazchilar yashaydigan Gazli shahriga zudlik bilan asos solindi. Tabiiy gaz qazib olish sur'atlari misli ko'rilmagan darajada oshirildi. 1960-yilda 0,4 mlrd m³ tabiiy gaz ishlab chiqarilgan bo'lsa, 1975-yilga kelib bu ko'rsatkich 33,7 mlrd m³ ga yetdi. Ittifoq hukumatining O'zbekistonda gaz ishlab chiqarishni oshirishdan maqsadi uni RSFSRning sanoat markazlariga ko'proq tashib ketish edi. Butunittifoq gaz qazib chiqarishda O'zbekistonning ulushi 1960-yildagi 1 foizdan 1975-yilda 20 foizga ko'tarildi. Bu nisbat keyinchalik ham doim ko'payib bordi.

Bepoyon Qizilqum sahrosi markaziy tumanlarining sanoat jihatidan o'zlashtirilishi oltin va uran qazib olish sanoatining paydo bo'lishini taqozo etdi. 1958-yil 3-sentyabrda Navoiy kon-metallurgiya kombinatiga poydevor qo'yilishi bilan Navoiy shahriga asos solindi. Kombinat O'zbekistonning 5 ta viloyatida joylashgan 5 ta kon boshqarmasi va ular negizida qurilgan Navoiy, Sovetobod (hozirgi Nurobod), Zarafshon, Uchquduq shaharlari, Muruntov, Krasnogorsk, Zafarobod, Shalqar shaharchalariga asos solgan. Dunyoda eng yirik Muruntov oltin koni 1961-yili ishga tushirilib, dastlabki sof quyma oltin (999,9 probali) 1963-yil tayyorlangan. Sanab o'tilgan sanoat korxonalarining, konlarning barchasi to'laligicha Markaz ixtiyoriga o'tkazildi hamda ularning boshqaruv organlari ham aynan Markaz tomonidan shakllantirildi. Ushbu jarayon esa, o'z-o'zidan yurtimizning iqtisodiy hayotiga salbiy ta'sir etmasdan qolmadi. Markaz rahbariyati esa, ushbu konlar topilgach, ulardan yanada kengroq foydalanishga zo'r berdi. Natijada, O'zbekistonda yengil sanoat sohasiga e'tibor yildan yilga pasaya bordi va ushbu soha ham inqiroz holatiga tushib qoldi. O'n birinchi besh yillik (1981-1985-yillar)ning boshida asosiy fondlar 1,8 barobar ortgan bo'lsa-da, fond unumi 12 foizga tushib ketgan. Bunga asosiy sabab qilib esa, korxonalar va obyektlarning yarim quvvatda o'zlashtirilishi hamda ularning ancha kech ishga tushirilganligidadir. Bundan tashqari ushbu ishlab chiqarish korxonalarining moddiy-texnik baza bilan yetarlicha ta'minlanmaganligi, mavjudlarining ham ma'naviy va jismoniy jihatdan eskirganligi, ushbu soha rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Hattoki, ayrim korxonalaridagi stanoklarning arzimasi detallari

yetishmasligi natijasida ular ishlatilmasdan turib qolar edi.

Siyosiy rahbariyat esa iqtisoddagi inqiroz sabablarini topishga harakat qilib, ministrlklar va mahkamalar, birlashmalar va korxonalarining rahbarlarini yetarli darajada tashabbus va “sotsialistik tadbirkorlik” ko'rsatmaganlikda aybladi. Shuningdek, ularni ishchi kuchi yetishmasligini ro'kach qilib, O'zbekistonda katta mehnat resurslari mavjud bo'lishiga qaramay, ishlab chiqarish quvvatlaridan unumli foydalanilmaganlikda ham aybdor qildi.

Aslida-chi? Aslida paxta va boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish uchun qulay iqlim sharoiti, unumdor tuproqqa ega bo'lgan, bundan tashqari butun dunyoda eng qimmatbaho hisoblangan tabiiy boyliklardan oltin, uran, tabiiy gaz kabi konlarga ega bo'lgan yurtimizda iqtisodiy o'sish sur'atlari nega pasayib ketdi? Bunga bir qancha sabab va omillarni keltirishimiz mumkin.

Avvalo, sovet rahbariyati sovet iqtisodiy modelining samarasiz ekanligini, uning zararli oqibatlariga olib kelishini tan olmadi. Doimiy ravishda qo'shib yozishlar, yolg'on statistik ma'lumotlar vositasida haqiqat xalqdan yashirildi.

Ikkinchidan, boshqaruvning ma'muriy-buyruqbozlik uslublariga asoslanganligi, haqqoniy vaziyatni hisobga olmaslik, muammolarga inson omili emas, balki boshqaruv tizimining nobopligi sababchi ekanligi anglanmadi. Natijada Markaz tomonidan Respublika toifasida rahbarlar bir necha bor o'zgartirilganiga qaramasdan, iqtisodiy ko'rsatkichlar o'zgarmasdan qolaverdi.

Uchinchidan, sanoat sohasiga tub aholi vakillari deyarli jalb etilmasdi. Ushbu sohaga kadrlar asosan Rossiya, Ukraina, Belorussiya (asosan rus tilida so'zlashuvchi davlatlar) dan jalb etilardi. Mahalliy aholi katta qismining bandligi esa, majburiy ravishda qishloq xo'jali bilan ta'minlanardi. Sanoat korxonalarining ishchilari rahbarlik lavozimlarini egallagan bo'lib, yuqori maosh, barcha qulayliklarga ega bo'lgan turar joylar bilan ta'minlanga bo'lsa, mahalliy aholining asosiy qismi bunday yengilliklardan mosuvo edi.

To'rtinchidan, agarda urushdan avvalgi va keyingi dastlabki besh yilliklarda yangi sanoat tarmoqlari yaratilgan bo'lib, agrar sohada mahsuldorlik oshgan bo'lsa, 60-yillarning o'rtalaridan boshlab, ushbu sohalarga yangiliklar deyarli jalb etildi. Garchi yangidan-yangi konlar, sanoat korxonalari ishga tushgan bo'lishiga qaramasdan, vaqt o'tib borgan sari ular ham to'la quvvat bilan ishlamayotgan edi.

Beshinchidan, yirik sanoat korxonalari asosan Markaz ixtiyorida edi. Ular Markaz tomonidan boshqarilar, rahbarlari Markaz tomonidan tayinlanar va ishdan olinar, statistik ma'lumotlar Respublika rahbariyatiga emas, balki Markaz rahbariyatiga taqdim etilardi. Ushbu jarayon esa Respublika rahbariyatining manfaatdorlik hissining kamayishiga olib kelardi.

Umuman olgan, ushbu jarayonlar 80-yillarda Sovet Ittifoqida tizimli inqiroz jarayoni davom etayotganidan dalolat berib turardi. Biroq Markaz rahbariyati hali hamon rivojlanishning iqtisodiy qonunlariga emas, balki mafkuraviy omilga urg'u berishda davom etardi. Bu esa o'z navbatida nafaqat iqtisodiy inqirozga, balki SSSRning parchalanishiga olib kelgan siyosiy inqirozga ham sababchi bo'ldi.

Garchi ayrim manbalarda O'zbekistonning 1960-1980-yillardagi taraqqiyot davri “Barqaror rivojlanish davri” deya nomlangan bo'lsa-da, yuqoridagi iqtisodiy tahlillar bu jarayon aslida, boshqacha kechganligini ko'rish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ирригация Узбекистана. Том 1. Ташкент, 1975. – С.82
2. Народное хозяйство Узбекской ССР за 70 лет Советской власти. Юбилейный статистический сборник. – Ташкент, 1987. С. 99.
3. O'zbekiston tarixi. Ikkinchi kitob (1939-1991-yillar). – Toshkent – “O'zbekiston” – 2019. 120-135-betlar
4. Rajabov Q., Zamonov A. O'zbekiston tarixi (1917-1991-yillar). 1-nashri. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017. 125-bet.
5. «Правда Востока», 24 июня 1984 г.
6. Коммунистическая партия Узбекистана в резолюциях и решениях съездов и пленумов ЦК. Том III. 1960-1975 гг. – Ташкент: «Узбекистан», 1988, - С. 117-119, 349-350
7. Узбекистан за годы восьмой пятилетки (1966-1970 гг.). Краткий статистический сборник. – С.26